

## Nargiz Musayeva

### "Alvido"

Visit "[Alvido](#)" on MotoLyrics.com

Jonginam, ketaman, alvido!  
Yurakdan to'kilar bir sado.  
Bizlardan qolgani shu nido -  
Alvido, alvido, alvido!

Nahotki zoyedir ahdimiz,  
Sevgimiz, orzumiz, baxtimiz.  
Shunchalar ham omonat taxtimiz?  
Alvido, alvido, alvido!

Ko'zlarimni yumaman seni ko'rmoqlik uchun!  
Bamisoli shabnam - nurga to'ymoqlik uchun!  
Meni kechir, jonginam, sensiz yashay bilmadim!  
Men dunyoga kelganman seni sevmqlik uchun!

Shamollar to'zg'iydi isyonkor,  
Samolar yig'laydi, dil - oshkor,  
Bu dunyo, azizim, riyokor,  
Alvido, alvido, alvido!

Umrimiz xazondir g'urbatda,  
Ruhimiz uchrashar albatta,  
Visolga yeturmiz jannatda,  
Alvido, alvido, alvido!

Ko'zlarimni yumaman seni ko'rmoqlik uchun!  
Bamisoli shabnam - nurga to'ymoqlik uchun!  
Meni kechir, jonginam, sensiz yashay bilmadim!  
Men dunyoga kelganman seni sevmqlik uchun

Visit [Nargiz Musayeva](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.